

**BOLALARDA UCHRAYDIGAN TUG‘MA DIAFRAGMA
CHURRALARINI TASHXISLASH VA DAVOLASH NATIJALARINI
TAHLIL QILISH VA BO‘LMACHALAR VA QORINCHALAR DEFEKTI
BILAN TUG‘ILGAN CHAQALOQLARDA OPERATIV YONDASHUV**

Usmanova M.B.

Quyliyeva M.U.

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti

Xodjayeva Jasmina

Sobirova Komila

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti farmatsiya fakulteti talabalari

usmanovamarhabo24@gmail.com

ANNATOTSIYA

Bolalardagi konjenital diafragma churrasini tashxislash va davolash natijalarini tahlil qilish va hozirgi rivojlanib borayotgan tibbiyot davrida yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda bo‘lmachalar va qorinchalar tug‘ma nuqsonlari bilan xastalanish ko‘payib borganligi sababli buni erta aniqlash va kerakli chora tadbirlarini olib borish. Ushbu defekt bilan tug‘ilgan chaqaloqlarni konservativ davolash yoki operativ davolash muolajalarini olib boorish haqida.

***Kalit so‘zlar:** diafragma, defect, konservativ, anomaliya, konjenital, neonatal, relaksatsiya, embryonal, perinatal, diagnostika.*

ABSTRACT

Analyzing the results of diagnosis and treatment of congenital diaphragmatic hernia in children, as well as early detection and necessary measures due to the increasing incidence of congenital defects of the ventricles and compartments in newborns in the modern medical era. About conservative treatment or operative treatment of babies born with this defect

***Key words:** diaphragm, defect, conservative, anomaly, congenital, neonatal, relaxation, embryonic, perinatal, diagnosis.*

KIRISH

Bolalar anomaliyalarida uchraydigan tug‘ma diafragma churrasi (TDCh) ning kelib chiqishiga - plevroperitoneal kanalning yopilish jarayonining sekinlashishi va buzulishi, hamda diafragma mushak qismining yetishmovchiligi yoki diafragma innervatsiyasining buzulishi natijasida yuzaga keladigan nuqson bo‘lib, bunda qorin bo‘shlig‘i a‘zolarining, ya‘ni: oshqozon-ichaklar, taloq va jigarning ayrim holatlarda oshqozon osti bezi hamda buyraklarning ko‘krak bo‘shlig‘iga siljishi kuzatiladi.

Bolalarda TDCh xastaligi bilan tug'ulishlar har 2000-4000 ta yangi tug'ilgan chaqaloqlarning 1 tasida uchraydi. Bu ko'rsatgich bolalardagi barcha tug'ma anomaliyalarning 8% ni tashkil qiladi. TDCh ning eng ko'p uchraydigan turi bo'lib chap tomonlama tug'ma diafragma churrasi 80-90% ni tashkil qiladi. Tug'ma anomaliyalar muammolarining dolzarbligi chaqaloqlar o'limlari koeffitsientining yuqoriligi 70-90%, ko'rsatkichlari bilan belgilanadi. Tadqiqot maqsadi: Bolalardagi konjenital diafragma churrasini tashxislash va davolash natijalarini tahlil qilish. Tadqiqot materiali va usullari: Ishning asosiga VBKTTM ning jarrohlik hamda neonatal jarrohlik bo'limlarida 2000- 2022 yillar oralig'idagi statsionar davolanishga yotqizilgan TDCh bilan xastalangan 56 nafar bemor bolalarning kasallik tarixlaridan foydalanib, TDChni tashxislash va davolash ishlarini tahlil qilish maqsad qilib olindi. Shulardan hozirgi kungacha 30 (53,57%)tasini o'g'il bolalar, 26 (46,43%)tasini qiz bolalar tashkil qilmoqda. Natijalar: Bolalarda TDCh tasniflashda bolalar jarrohligi ko'p qo'llaniladigan S.Ya.Doletskiy tasnifidan foydalanildi va bu tasnifga ko'ra: I. Xususiy diafragma churralari-38 (67,86%), shundan I A: Diafragma relaksatsiyasi (chin churralar) 5 (8,93%); diafragmaning o'ng tomonlama relaksatsiyasi 2 (3,57%), diafragmaning chap tomonlama relaksatsiyasi 3 (5,36%), I B. Diafragma tirqishi (soxta churralar): 33 (58,93%), chap tomonlama soxta diafragma churrasi 26 (46,43%), o'ng tomonlama diafragma churrasi 3 (5,36%), diafragmaning turli relaksatsiyalari va chap tomonlama diafragma churrasi 2 (3,57%), diafragmaning relaksatsiyasi va o'ng tomonlama diafragma churrasi 1 (1,79%) va chap tomonlama diafragma aplaziyasi va chap tomonlama soxta diafragma churra 1 (1,79%). II.Diafragmaning qizilo'ngach teshigi churralari (haqiqiy churralar): 17 (30,36%), 15 (26,79%) – birlamchi, 2 (3,57%) - retsidiv paraezofageal churralar. III. Diafragmaning old qismining churralari: 1 (1,79%), o'ng tomonlama parasternal churra 1 (1,79%) ni tashkil etdi. Xulosalar:Ushbu kasallikni erta tashxislash sonining ko'payishi, ularning rivojlanish omillari haqida yagona nuqtai nazarning yo'qligi, turli diagnostika usullaridan foydalanish, jarrohlik davolash usullarining ko'pligi, qoniqarsiz natijalarning yuqori foizi va yangi davolash algoritmlarini ishlab chiqish istiqbollari bu kasallikni bolalar jarrohligining dolzarb muammosiga aylantiradi. Natijada aniqlangan bunday omillarning barchasi TDCh bilan xastalangan bolalarda kasallikni erta tashxislash va jarrohlik yo'li bilan davolashning yangi, samaraliroq usullarini izlashni va qo'shimcha mulohazalar yuritishni talab qiladi. Tadqiqot maqsadi: Hozirgi rivojlanib borayotgan tibbiyot davrida yangi tug'ilgan chaqaloqlarda bo'lmachalar va qorinchalar tug'ma nuqsonlari bilan xastalanish ko'payib borganligi sababli buni erta aniqlash va kerakli chora tadbirlarini olib borish. Ushbu defekt bilan tug'ilgan chaqaloqlarni konservativ davo yoki operativ davo

muolajalarini olib borish kerak. Har bir yangi tug`ilgan chaqaloqlardagi tug`ma nuqsonlarni erta aniqlash, chaqaloqni hayot sifatini yaxshilash va tegishli davo choralarini qo`llash. Tadqiqot material va usullari: Respublikamizda so`nngi 12 oyda yangi tug`ilgan chaqaloqlarda ilmiy tekshiruvlar natijasi. Tadqiqot natijalari: Tug`ma yurak nuqsonlari embrional rivojlanish davridagi buzilishlar natijasida yurak qon tomir sistemasidagi o`zgarishlar tufayli rivojlanadi. Tug`ma yurak nuqsonlari uchrashi barcha tug`ilgan chaqaloqlar ichida 0,5% tashkil etadi. 2 yoshdan oshgan bolalar ichida esa u 0,2% xolarda uchraydi. Agar o`z vaqtida tug`ma yurak nuqsoni bor bolaga shifokor yordami ko`rsatilmasa 1 oy ichida 50% yangi tug`ilgan chaqaloqlar nobud bo`lishi, 1 yil ichida esa 25% o`lim xolati qayd etilgan. Taxminan 20-35% nuqsonlar ko`karishsiz rivojlanadi va bolalar rangi deyarli o`zgarmaydi. Xozirda 100 dan ortiq tug`ma nuqsonlar tafovut etiladi. Bo`lmachalararo defekt: Barcha tug`ma yurak nuqsonlari ichida 6-10% ni tashkil etadi. Xozirgi zamon kardioxirurgiyasi bo`lmachalararo defektni bartaraf qilish amaliyotidan boshlagan, bunda quruq yurakda 1952 yil va ishlab turgan yurakda 1953 yil operatsiyalar bajarilgan. Qorinchalararo to`siq defekti: Barcha tug`ma yurak nuqsonlari ichida 20% ni tashkil etadi. Birinchi bo`lib qorinchalararo defektni bartaraf qilish amaliyotini Roger 1879 yil bajargan. Tadqiqot natijasi shuni ko`rsatadiki Respublikamizda so`nngi 12 oyda 850 mingdan ziyod chaqaloqlar dunyo kelgan. Bo`lmachalar va qorinchalar defektlari bilan tug`ilganlar soni 4 mingdan oshgan. Ushbu defektlarni Respublika va Viloyat kardiologiya markazlarida operativ yo`llar bilan davolash yo`lga qo`yilgan. Xususan Andijon viloyatida so`nngi 12 oy ichida 100 dan ziyod yangi tug`ilgan tug`ma nuqsoni bo`lgan chaqaloqlarni muvofiqiyatli operatsiya qilindi. Xulosa: Maqola perinatal o`lim darajasini, tug`ma nuqsonlarni uchrash chastotasini kamaytirish, yangi tug`ilgan chaqaloqlar hayotini birinchi kunidan boshlab somatik kasalliklarni rivojlanishi oldini olish va chaqaloqni sog`lom hayotga qaytarish imkoniyatiga asoslanadi. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib mintaqada tug`ma yurak nuqsoni bilan tug`ilish darajasini pasaytirish bo`yicha joriy etish imkonini berdi.

ADABIYOTLAR

1. Usmanova, M. B., & Imamova, Y. A. (2023). AN UNDERSTANDING OF THE FORMULATION OF THE DRUG AND THE RELEASE OF THE ACTIVE SUBSTANCES OF THE DRUG. In *Горизонты биофармацевтики* (pp. 154-159).
2. Усманова, М. Б., Сайдазимова, Х. Б., & Алимов, Ш. Ш. (2024). ЧТО ТАКОЕ ГРАНУЛИРОВАНИЕ И КАК ОНО СПОСОБСТВУЕТ РАЗВИТИЮ НУТРИЦЕВТИКОВ И ПИЩЕВЫХ ДОБАВОК?. *Worldwide Cross-Disciplinary Research*, 1(1).

3. Усманова, М. Б., Жозилова, Н. М., & Исраилова, Г. Д. (2024). СРЫГИВАНИЕ И РВОТА У МАЛАДЕНЦЕВ. *EDUCATION AND SCIENCE YESTERDAY AND TODAY*, 1(1).
4. Усманова, М. Б., Саманова, Ф. М., & Туракулов, И. Ш. (2024). О ВРЕДЕ САМОЛЕЧЕНИЯ. *Universal Science Perspectives International Scientific Practical Journal*, 1(1).
5. Усманова, М. Б., Саманова, Ф. М., Адилова, С. Х., & Рахимкулова, З. А. (2024). ПРОФИЛАКТИКА ТРОМБОЭМБОЛИЧЕСКИХ ОСЛОЖНЕНИЙ В ГИНЕКОЛОГИЧЕСКОЙ ПРАКТИКЕ. *INTERNATIONAL JOURNAL OF INTEGRATED SCIENCES*, 1(1).
6. Усманова, М. Б., Сайдазимова, Х. Б., & Алимов, Ш. Ш. (2024). МИЯ ИЧКИ БОСИМИ ОШИШИ—АЛОҲИДА КАСАЛЛИКМИ?. *SCIENTIFIC AND PRACTICAL RESEARCH OF THE 21ST CENTURY*, 1(1)
7. Усманова, М. Б., & Адилова, С. Х. (2024). ЭНДОМЕТРИОИДНАЯ БОЛЕЗНЬ—СОВРЕМЕННЫЙ ВЗГЛЯД НА ПРОБЛЕМУ. *ACTIVIST SCIENCE*, 1(1).
8. Усманова, М. Б. (2024). ИБН СИНОНИНГ ЖАҲОНДАГИ ЯНГИЧА ТИББИЁТ АСОСЧИСИ СИФАТИДАГИ КАШФИЁТЛАРИ. *ACTIVIST SCIENCE*, 1(1).
9. Усманова, М., & Зарпуллаева, Г. (2023). НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ БИОХИМИИ. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 1(9), 53-57.
10. Усманова, М., Эрназарова, М., & Қўйлиева М, Х. Г. (2021). Organization of pharmacy activities, measures for storage of medicines. *Экономика и социум*, 11(90), 77.
11. Qo'Yliyeva, M. U., Ernazarova, M., Usmonova, M., & Yu, I. (2021). CHILONJIYDA HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT, TARKIBI, XALQ TABOVATIDA QO'LLANILISHI, XUSUSIYATLARI VA ULARNING HAR XIL TURLARI, O'STIRISH UCHUN SHAROIT. *Экономика и социум*, (11-1 (90)), 476-480.
12. Шкурова, Д., Усманова, М., & Имамова, Ю. (2021). Private technology of powders Preparation of powders with abrasives, dyes and hard powders, extracts and essential oils. *Экономика и социум*,(11), 90.
13. Ismoilova, M. Y. (2023). KORİANDRA O'SIMILIGINING TIBBIYOT VA GENIKOLOGIYADAGI AXAMIYATI: 1-SON 1-TO'PLAM IYUL 2023 yil. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 1(1), 218-222.
14. Sh, A., Kuyliева, M. U., & Usmanova, M. B. (2022). Application of phytotherapy in the treatment of chronic prostatitis.

15. Imomova, Y., Usmonova, M. B., Yo‘Ldoshev, S., & Ahmadov, J. (2021). DORI VOSITALARINING ZAMONAVIY TAHLIL USULLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(8), 587-596.
16. Имамова, Ю. А., & Усманова, М. Б. (2022). РОДИОЛЫ РОЗОВАЯ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ РАБОТОСПОСОБНОСТИ ОРГАНИЗМА. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 4-2), 901-904.
17. Усманова, М. Б., Саманова, Ф., Исройилова, Г., & Маҳаммадиева, С. (2023). БЕМОРЛАРГА ҚЎШИМЧА МУОЛАЖА СИФАТИДА МАССАЖ ҚАЧОН ВА ҚАНЧА МУДДАТГАЧА ҚЎЛЛАНИЛАДИ. *Бюллетень студентов нового Узбекистана*, 1(9), 35-38.
18. Усманова, М. Б., & Имамова, Ю. А. (2022). ЛУК РЕПЧАТЫЙ– ПРИМЕНЕНИЕ В МЕДИЦИНЕ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 4-2), 914-917.
19. Usmanova, M. B. (2022). Geksikon shamchasini tayorlashda uning asosni almashtirish. *Science and Education*, 3(11), 213-220.
20. Usmanova, M. B., Jozilova, N. M., Saydazimova, H. B., & Mavlanova, N. O. (2023). TIBBIYOTDA YURAK XASTALIKLARINI DAVOLASHDA QO‘LLANILADIGAN DORIVOR O‘SIMLIKLAR. *Analysis of world scientific views International Scientific Journal*, 1(4), 105-109.
21. Мархабо, М. У., & Зарпуллаева, Г. (2023). НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ БИОХИМИИ. *Бюллетень педагогов нового Узбекистана*, 1(9), 61-65.
22. Шкурова, Д., Усманова, М., & Имамова, Ю. (2021). Порошоларинг хусусий тухнологияси тузгувчи, буёвчи ва кийин майдаланувчи моддалар, экстрактлар ва эфир мойлари билан порошоклар таййорлаш. *Экономика и социум*, 11, 90.
23. Хасанова, Г. Р., & Усманова, М. Б. Geksikon shamchasini tayorlashda uning asosni almashtirish. *SCIENGE AND EDUCATIONISSN*, 2181-0842.
24. Усманова, М., Эрназарова, М., Куйлиева, М., & Хасанова, Г. (2021). Дорихона фаолиятини ташкил этиш, дорилар саклаш чора тадбирлари. *Экономика и социум*, (11), 90(6).
25. Хасанова, Г. Р., & Усмонова, М. Б. (2022). Применение фасоли (phascolus) в медицине. *Science and Education*, 3(11), 117-125.
26. Yuldashev, S., Halimbetov, Y., Usmanova, M., Naimova, Z. S., & Khamraeva, M. (2021). National Processes In Uzbekistan And The Formation Of The Internationalist Maturity Of The Younger Generation. *The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research*, 3(06), 167-175.
27. Хасанова, Г. Р., Усманова, М. Б., & Нажмитдинов, Х. Б. (2022). ВИТАМИНГА БОЙ ЛОВИЯ (PHASCOLUS) ЎСИМЛИГИНИНГ УМУМИЙ

ХУСУСИЯТЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(9), 333-336.

28. Usmanova Markhabo Balkhievna, Toyirova Niginabonu, Zaypullayeva Gulsanam (Author) Vol. 39 No. 2 (2025): PREPARATION OF EXTRACTS BASED ON CRATAEGUS FLABELLATA FRUITS TA'LIM INNOVATSIYASI VA INTEGRATSIYASI| 39-SON | 2-TO'PLAM 3-6.